OGOHIY G‘AZALLARIDA OLMOSHLARNING QO‘LLANILISHI

Maratova Zuxra,
RANCH universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Jumamuratova Sevara,
Urganch RANCH texnologiya universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi Jumamuratova Sevara

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18757745

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ogohiy g‘azallarida olmoshlarning qo‘llanish xususiyatlari lingvistik va uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kishilik, ko‘rsatish, so‘roq va umumlashtiruvchi olmoshlarning badiiy matndagi funksional yuklamasi, ularning lirik qahramon ruhiyati, muallif pozitsiyasi hamda poetik mazmunni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Olmoshlarning nutqiy ixchamlikni ta’minlash, subyektivlikni kuchaytirish va tasvir ta’sirchanligini oshirishdagi roli misollar asosida ochib beriladi. Olingan xulosalar Ogohiy she’riy tilining uslubiy boyligini hamda o‘zbek mumtoz adabiy tilida olmoshlarning poetik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *olmosh, fonetik hodisa, morfologik tahlil, sintaktik jihat.*

Abstract. *This article analyzes the linguistic and methodological features of the use of pronouns in Ogohiy's ghazals. The study highlights the functional load of personal, demonstrative, interrogative and generalizing pronouns in the literary text, their role in expressing the psyche of the lyrical hero, the author's position and poetic content. The role of pronouns in ensuring speech conciseness, enhancing subjectivity and increasing the expressiveness of the image is revealed on the basis of examples. The conclusions obtained serve to determine the stylistic richness of Ogohiy's poetic language and the poetic possibilities of pronouns in the Uzbek classical literary language.*

Keywords: *pronoun, phonetic phenomenon, morphological analysis, syntactic aspect.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвистические и методологические особенности использования местоимений в газелях Огохия. Исследование освещает функциональную нагрузку личных, указательных, вопросительных и обобщающих местоимений в литературном тексте, их роль в выражении психологии лирического героя, позиции автора и поэтического содержания. На примерах раскрывается роль местоимений в обеспечении лаконичности речи, усилении субъективности и повышении выразительности образа. Полученные выводы служат для определения стилистического богатства поэтического языка Огохия и поэтических возможностей местоимений в узбекском классическом литературном языке.*

Ключевые слова: *местоимение, фонетический феномен, морфологический анализ, синтаксический аспект.*

Kirish. Ot, sifat, son, ravish o‘rnida qo‘llanib, ularni ko‘rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so‘z turkumi **olmosh** deyiladi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki ularni ko‘rsatish, ularga ishora

qilish uchun xizmat qiladi. Olmoshlar ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra yetti turga bo‘linadi: kishilik, o‘zlik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash- jamlash va gumon olmoshlari. [1.:129]

XIX asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Ogohiy o‘zining sermazmun g‘azallari bilan turkiy she’riyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkordir. Uning g‘azallarida ishq, hijron, sadoqat, ma’rifat kabi an’anaviy mavzular chuqur badiiy talqin etiladi. Shu bilan birga, shoir tili grammatik va uslubiy jihatdan ham boy bo‘lib, xususan, olmoshlarning qo‘llanilishi badiiy ifodaning ta’sirchanligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Olmoshlar orqali lirik qahramonning ichki kechinmalari, murojaat shakllari hamda subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabatlar nozik tarzda ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ogohiy ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, uning g‘azallari badiiy va poetik jihatdan ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida shoirning “Devoni Ogohiy” tarkibiga kirgan g‘azallari asosiy manba sifatida tanlandi. Xususan, ishq, hijron va sadoqat mavzularini yorituvchi ayrim mashhur g‘azallari misol sifatida tahlilga tortildi.

Shuningdek, Ogohiy ijodi haqida A. Qayumov, N. Komilov, B. Valixo‘jayev kabi adabiyotshunoslarning ilmiy ishlari nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Olmoshlarning grammatik va semantik xususiyatlari esa Sh. Shoabdurahmonov, A. Hojiyev, R. Sayfullayeva kabi tilshunoslarning tadqiqotlariga tayangan holda yoritildi. Mavjud ilmiy manbalarda Ogohiy g‘azallaridagi olmoshlarning maxsus lingvistik tahlili yetarlicha berilmagani ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy va kontekstual tahlil metodlari asosiy metodlar sifatida qo‘llanildi. Ular yordamida Ogohiy g‘azallarida uchraydigan olmoshlarning turlari, shakllari hamda mazmun ifodalashdagi vazifalari aniqlandi.

Shuningdek, ayrim holatlarda qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanilib, olingan natijalar tizimlashtirildi. Ushbu metodlar Ogohiy g‘azallarida olmoshlarning lingvistik va badiiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. *San* jamol-u hashmatda husn mulki shohisan.

Man malol-u kulfatda bandai nazoringman. (“Ey quyosh, yuzing ochgin” g‘azali)

Ushbu baytda **kishilik (san, man)** olmoshlaridan foydalanilgan. Bu yerda qo‘llangan olmoshlar asosida tovush almashish hodisasi ro‘y berganligining guvohi bo‘lamiz. *Men, sen* shakllari eski o‘zbek adabiy tili va she’riy nutqda keng

uchraydigan fonetik variant bo‘lib, hozirgi *men, sen* olmoshlarining tarixiy shaklidir. Morfologik jihatdan bu olmoshlar ikkalasi ham gapda ega vazifasini bajaryapti va bosh kelishik shaklida ifodalangan.

Urib dam g‘ayb sirridin ham etkung da’voyi imom,
Bu yanglig‘ kufr birla turgan imoningg‘a sallamno.

Yuqoridagi bayt Ogohiyning “Sallamno” radifli g‘azalidan olingan bo‘lib, ko‘rsatish olmoshi qatnashgan. Gapdagi vazifasi sifatlovchi aniqlovchi hisoblanadi. Shu bilan birga gapga ishora qilish vazifasida qo‘llangan.

Bizki bukun jahon aro kishvari farq shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu’lasidur kulohimiz.
Kim bo‘la olg‘usi taraf *bizgaki*, ashk-u ohdin
Tutti yer-u sipehrni shavkat-u dastgohimiz.

Bizki bukun jahon aro kishvari farq shohimiz… deb boshlanuvchi g‘azalda olmoshlarning 2 ta turi qatnashgan: kishilik olmoshi va so‘roq olmoshi. Kishilik olmoshining qo‘llanilishi: **“bizki”** ega vazifasida kelgan va unga -ki yuklamasi kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini yuklagan. Keyingi baytda “kim” so‘roq olmoshi ishtirok etgan. Bu yerda faqatgina so‘roq ma’no ifodalabgina qolmay, balki ritorik so‘roq gapni shakllantirishda xizmat qilmoqda. Shuningdek, ruju she’riy san’atini ham yuzaga keltiryapti.

Qad-u labing fosh-u nihon, eldin olur tob-u tavon,
Ushbu nihon-u foshinga olam gado, ham *man* gado.

“Olam gado, ham man gado” radifli g‘azalida kishilik va ko‘rsatish olmoshilari qatnashgan. **“Ushbu”** ko‘rsatish olmoshi boshqa ko‘rsatish olmoshlaridan farqli ravishda ko‘tarinkilik, tantanavorlik ma’nolarini akslantirishi bilan ajralib turadi. Gapda **“qaysi?”** so‘roqiga mansub bo‘lib, *sifatlovchi aniqlovchi* vazifasida qo‘llangan. Shuningdek, g‘azalga yanada badiiy-estetik kayfiyat qo‘shishga xizmat qilmoqda. **“Man”** olmoshi fonetik hodisaga uchragan, ya’ni **“men”** hozirgi adabiiy shaklning eski o‘zbek tilida qo‘llaniladigan ko‘rinishi ishlatilgan. Grammatik jihatdan *ega* vazifasini bajargan.

Har necha otsang o‘q-u tosh, aylab g‘azab olamg‘a fosh,
Bo‘lg‘usi o‘q-u toshinga olam gado, ham *man* gado.

Yuqoridagi baytda **“har necha”** *belgilash- jamlash* olmoshi ishtirok etgan. Grammatik jihatdan “qancha?” so‘roqiga javob bo‘lib, miqdor holi vazifasida kelgan. Qisman harakatning davomiyligiga ham urg‘u qaratgan.

Istabon *ul* yuz tomoshasini ko‘zdin damba- dam,
Qon to‘karsan chashmi gityoning kerakmasmu sanga?

O‘zgalarga iltifoting aylading maxsus, *bu*
Mustahiq lutfu ehsoning kerakmasmu *sanga*?

Yuqoridagilar “Kerakmasmu sanga?” radifli g‘azalining ikkinchi va beshinchi baytlariga mansub. Birinchi keltirilgan baytda ko‘rsatish olmoshiga namuna uchratish mumkin. **“Ul”** eski o‘zbek adabiiy tilida juda ko‘p ishlatilgan olmoshlardan biri hisoblanadi. Hozirgi shakli **“U”** olmoshiga to‘g‘ri keladi. Gapda aniqlovchi bo‘lib kelgan. Badiiy jihatdan ko‘p hollarda istiora san’atini shakllantirishga yordam beradi.

Ikkinchi keltirilgan baytda o‘zlik, ko‘rsatish va kishilik olmoshlari qatnashgan. **“O‘zgalarga”** olmoshi to‘ldiruvchi bo‘lib, III shaxs, ko‘plik sifatida qo‘llangan. Shu qatori, **“sanga”** olmoshi ham mavjud. Bu olmosh yuqoridagi ba’zi olmoshlar qatori fonetik o‘zgarishga uchragan. Gapda vositasiz to‘ldiruvchi va II shaxs, birlik bo‘lib kelgan.

Jafosi zo‘ridin ikki ko‘zimdan oqdi daryolar –
Ki, qolg‘oy ostida *oning* jahon ohista- ohista.

“Ohista- ohista” radifli g‘azalida kishilik turiga kiruvchi olmosh qatnashgan. **“Oning”** olmoshi hozirgi **“Uning”** olmoshining eski ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Tarkibida –ning qaratqich kelishigi shakli mavjud. Asosdagi **“U”** tovushi **“O”** tovushiga almashilishi kuzatiladi. Tabiiyki, gapda aniqlovchi vazifasida kelgan. Qaralmish bo‘lib “ostida” so‘zi kelgan. Odatda qaratqichdan so‘ng qaralmish kelishi kerak, lekin ba’zi hollarda qaralmishdan so‘ng qaratqich kelishi ham mumkin. Aynan, Ogohiy ijodida bunga mukammal namuna ko‘rishga muyassar bo‘ldik.

Dardi dilim *ango* dedim, dema *oni mango* dedi,
Kim *manga* oshiq o‘lsa *ul* lozim erur *ango* dedi.

Vah, nedin erkon etmogung hech vafo *mango* dedim,
Zohir o‘lubdur *qachon* husn eldin vafo dedi.

Xasta ko‘ngulga qilg‘osan *muncha* nedin jafo dedim,
Dema jafo *ani sening* dardingadur davo dedi.

Yuqoridagilar Ogohiyning “Dedi” radifli g‘azalidan olingan birinchi, oltinchi va yettinchi baytlar hisoblanadi. Birinchi baytda ko‘rsatish va kishilik olmoshlari o‘ziga xos uslubda namoyon bo‘lgan. **“Ango”, “oni”, “mango”, “manga”, “ul”** olmoshlari barchasi uchun umumiy bo‘lgan jihat bu – fonetik o‘zgarishlar mavjudligi. Deyarli barcha olmoshlar tarkibida kelishik qo‘shimchalari bor va ularda ham fonetik hodisa ro‘y bergan. “Mango” olmoshi tarkibidagi jo‘nalish kelishigining “O” tovushiga o‘zgarishiga yana bir sabab bu so‘zlarning bir- biri bilan qofiyadoshligini saqlab qolishdir.

Ikkinchi baytda esa so‘roq olmoshiga namuna uchratishimiz mumkin. **“Qachon?”** olmoshi bu yerda nafaqat so‘roq, balki gapni **ritorik** gapga aylantirishda ham xizmat qilmoqda. Shubhasiz bu ruju san’atini shakllantiradi.

Keyingi baytda **“muncha”, “ani”, “sening”** kabi olmoshlar ishtirok etgan. **“Muncha”** olmoshining adabiiy shakli “buncha” hisoblanadi. “Bu” olmoshiga -cha qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida “n” tovushi ortgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ogohiy g‘azallarida olmoshlarning qo‘llanilishi nafaqat grammatik zarurat, balki muhim badiiy-uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir shaxs, ko‘rsatish, so‘roq va umumlashtiruvchi olmoshlar orqali lirik qahramonning ruhiy holatini, murojaat ohangini hamda nutqning emotsional-ta’sirchanligini kuchaytirishga erishgan. Olmoshlar matnda ma’no ixchamligini ta’minlab, takrorlarning oldini olish bilan birga, bayonning ravon va mantiqiy bo‘lishiga xizmat qiladi. Ularning turli kontekstlarda mahorat bilan qo‘llanishi Ogohiy tilining boyligi va uning poetik tafakkurining yuksakligini ko‘rsatadi. Demak, shoir g‘azallaridagi olmoshlar tizimi nafaqat lingvistik, balki badiiy-estetik jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xolmonova Z.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent – 2007
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Universitet” nashriyoti. Toshkent – 2006